

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives..... | 873 |
| J.G.Numanova | |
| The role of podcasts and audiobooks in language education | 877 |
| J.G.Numanova | |
| The influence of technological advancements on language assessment methods | 881 |
| O.Z.Dadajonov | |
| XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini | 885 |
| S.A.Yusupova | |
| The evolution of politeness: a historical analysis of English novels | 890 |
| N.M.Merganova, N.A.Orifjonova | |
| Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari | 894 |
| G.A.To'lanboyeva | |
| Muloqot va uning xususiyatlari | 898 |
| S.A.Xaqnazarov | |
| Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi | 901 |
| N.M.Merganova | |
| Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari | 905 |
| C.X.Azimova | |
| Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах | 908 |
| N.A.Komilova | |
| The representation of gender in English idiomatic expressions | 911 |
| Y.A.Nasirdinova | |
| Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati | 915 |
| Y.A.Nasirdinova | |
| Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar | 919 |
| S.To'lanov | |
| Turistik diskursning matnda ifodalanishi | 923 |
| S.To'lanov | |
| Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv | 927 |
| Y.U.Abdurazzakov | |
| Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi | 931 |
| I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova | |
| Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari | 934 |
| D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova | |
| Challenges in translating Uzbek literature to English | 938 |
| D.S.Usmonova, N.R.Rajabova | |
| Using ai in the field of studying english as a second foreign language | 942 |
| Sh.M.Yusufjonova | |
| Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi | 946 |
| S.A.Xaqnazarov | |
| Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana | 949 |
| N.A.Nizomova | |
| Makon yasovchi affikslaming o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari | 953 |
| G.Astonova, M.M.Kaharova | |
| O'zbekiston va Germaniyada ta'limi tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi | 957 |
| G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi | 961 |
| N.A.Nizomova | |
| Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi | 966 |
| S.I.Quziyev | |
| Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalinish | 970 |
| Z.M.Yigitaliyeva | |
| Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi | 975 |
| Z.M.Yigitaliyeva | |
| About the term of persuasion | 979 |



УО'К: 81'373:37(575.1+430)

**О'ZBEKISTON VA GERMANIYADA TA'LIMNI TASHKIL ETISHGA OID LEKSIK
BIRLIKALAR TAVSIFI**

**ОПИСАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ПО ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ В
УЗБЕКИСТАНЕ И ГЕРМАНИИ**

**DESCRIPTION OF LEXICAL UNITS ON THE ORGANIZATION OF EDUCATION IN
UZBEKISTAN AND GERMANY**

G.Astonova¹ ¹Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchiM.M.Kaharova² ²Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, v.b, professor**Annotatsiya**

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayoni turi mamlakatlar o'tasida intensiv axborot almashinuvni va yaqin aloqalar o'mnatilishga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, bu jarayon ta'lim sohasida alohida ahamiyatga ega bo'llib, darsliklar, ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari va boshqa ilmiy manbalarni turli tillarga tarjima qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Akademik dasturlar almashinuvida ishtirok etish, turli mamlakatlar universitetlari va tadqiqot markazlari o'tasidagi o'zaro hamkorlik kengayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, Germaniya va O'zbekiston davlatlari ta'lim tizimi lug'at tarkibini qiyosiy o'rganish ushbu sohada hamkorlik munosabatlari olib borishda muhim ahamiyatga ega.

Dunyo davlatlarida ta'lim sohasidagi uzuksiz rivojlanish natijasida amaliyotga yangi texnologiyalarni joriy etish, zamонавиъ usul va yondashuvlardan foydalanish tegishli soha lug'at boyligini tushunishni talab etilmoqda. O'zbek va nemis tillarida ta'lim tizimi bilan bog'liq leksik birliklarning qiyosiy tadqiqi yangi atama, tushuncha va yondashuvlarni qo'llashdagi o'ziga xoslik, oxshashiлик va farqlijihatlarlarni, ularning milliy ta'lim standartlariga muvofiqligini ochib beradi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantrishga bo'lgan e'tiborning yanada kuchayishi davlat rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor vazifasiga aylandi. Rivojlangan xorijiy davlatlarning ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalarini o'rganish va tadbiq etish yuzasidan bir qator qaror va farmoyishlar ishlab chiqildi. Shu bois bir-biridan uzoqda bo'lgan butun dunyo rivojlangan davlat sifatide tan oigan Germaniya Federativ Respublikasi ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini afroficha o'rganish va tahlil etish hamda erishilgan yutuqlarni mamlakatimiz ta'lim tizimiga joriy etish dolzarb muammolardan biridir.

Binobarin, "Biz jahondagi barcha davlatlar ... bilan yaxshi qo'shnichilik va o'zaro do'stlik aloqalarini har tomonlama mustahkamlashlikni o'zimizning ustivor vazifamiz, deb bilamiz". O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda qabul qilgan "Chet tillari o'qitishni yanada takomillashtirish" to'g'risidagi PQ-1875 qarori, mamlakatimizda barcha sohalarning rivojlanishi unda faoliyat yuritayotgan mutaxassis kadrlarning chet tillari bo'yicha bilim va malakalarini oshirishlariga, bu esa o'z navbatida, ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilishiga asos bo'ldi.[1]

Аннотация

Процесс глобализации, происходящий в мире, является причиной интенсивного обмена информацией и установления тесных связей между разными странами. Особенность этого процесса имеет особое значение в сфере образования, что создает необходимость перевода учебников, научных статей, материалов конференций и других научных ресурсов на разные языки. Расширяется участие в обмене академическими программами, взаимное сотрудничество между университетами и исследовательскими центрами разных стран. С этой точки зрения для сотрудничества в этой области важно сравнительное изучение лексики образовательной системы Германии и Узбекистана. В результате постоянного развития сферы образования в странах мира, внедрения в практику новых технологий, использования современных методов и подходов требуется понимание лексики соответствующей области. Сравнительное исследование лексических единиц, относящихся к системе образования, в узбекском и немецком языках выявляет уникальность, сходство и различия в использовании новых терминов, понятий и подходов, а также их соответствие национальным образовательным стандартам. Повышенное внимание к развитию системы образования в нашей стране стало приоритетной задачей реформ, реализуемых главой государства. Разработан ряд решений и приказов по изучению и внедрению передового опыта в систему образования развитых зарубежных стран. Поэтому одной из актуальных задач является тщательное изучение и анализ

особенностей образовательной системы Федеративной Республики Германия, признанной развитой страной в далеком друг от друга мире, и внедрение достигнутых результатов достижения в систему образования нашей страны.

Поэтому «мы считаем своим приоритетом укрепление добрососедских и дружественных отношений со всеми странами мира». Решение РQ-1875 «Дальнейшее совершенствование преподавания иностранных языков», принятное первым Президентом Республики Узбекистан 10 декабря 2012 года, развитие всех сфер в нашей стране требует знаний и навыков специалистов, работающих на иностранных языках. а это, в свою очередь, стало основой масштабных исследований английского, немецкого и французского языков.

Abstract

The process of globalization taking place in the world is the reason for intensive exchange of information and establishment of close relations between different countries. Especially, this process is of particular importance in the field of education, which creates the need to translate textbooks, scientific articles, conference materials and other scientific resources into different languages. Participation in the exchange of academic programs, mutual cooperation between universities and research centers of different countries is expanding. From this point of view, the comparative study of the vocabulary of the educational system of Germany and Uzbekistan is important for cooperation in this field.

As a result of the continuous development in the field of education in the countries of the world, the introduction of new technologies into practice, the use of modern methods and approaches, it is required to understand the vocabulary of the relevant field. A comparative study of lexical units related to the educational system in the Uzbek and German languages reveals the uniqueness, similarities and differences in the use of new terms, concepts and approaches, as well as their compliance with national educational standards.

Increasing attention to the development of the education system in our country has become a priority task of the reforms implemented by the head of state. A number of decisions and orders have been developed regarding the study and implementation of advanced experiences in the educational system of developed foreign countries. Therefore, one of the urgent problems is to thoroughly study and analyze the specific features of the educational system of the Federal Republic of Germany, which is recognized as a developed country by the world, which is far from each other, and to introduce the achieved achievements into the educational system of our country.

Therefore, "We consider it our priority to strengthen good neighborly and friendly relations with all the countries of the world". Decision PQ-1875 on "Further improvement of teaching of foreign languages" adopted by the first President of the Republic of Uzbekistan on December 10, 2012, the development of all areas in our country requires the knowledge and skills of the specialists working in foreign languages. and this, in turn, became the basis for large-scale research on English, German and French languages.

Kalit so'zlar: ta'lif tizimi, ilmiy manbalar, zamonaliv usul, leksik birliklar, o'xshashlik va farqli jihatlarlar, o'ziga xoslik, uzuksiz rivojlanish, lug'at tarkibi, qiyosly o'rganish

Ключевые слова: образовательная система, научные ресурсы, современный метод, лексические единицы, сходства и различия, уникальность, постоянное развитие, лексика, сравнительное исследование

Key words: educational system, scientific resources, modern method, lexical units, similarities and differences, uniqueness, continuous development; vocabulary, comparative study

KIRISH

O'zbek va nemis tillarida ta'lif tizimi bilan bog'liq leksik birliklarning ifoda shakllari va ijtimoiy mohiyatini tadqiq etish.

- ta'lif tizimi bilan bog'liq birliklarni mavzuiy guruhlarga ajratish;
- o'zbek va nemis ta'lif bosqichlariga oid leksik birliklarni o'rganish;
- mazkur xalqlarga oid ta'lif tizimidagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash;
- o'zbek va nemis tillarida ta'lif tizimiga oid so'z yasash qoidalalarini qiyoslash;
- o'zbek va nemis tillarida ta'lif tizimiga doir barqaror birliklarning nutqda ifodalanishini qiyoslash.[2]

TADQIQOT METODLARI

Germaniyadagi ta'lif tizimi tuzilishiga ko'ra dunyodagi eng rivojlangan va tan olingan tizimlardan birdir. U yuqori darajadagi standartlar, moslashuvchanlik va turli xil ta'lif imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur ta'lif tizimi har bir fuqaroga o'z shaxsiyatini rivojlantirish, shaxsiy yondashuv va qobiliyatiga ko'ra maktab, universitet va kasbni erkin tanlash imkonini beradi. Ta'lif siyosatining maqsadi har bir shaxsni maqbul qo'llab-quvvatlash va unga barcha ehtiyoj va qiziqishlarga javob beradigan kasbiy ta'lif olish imkoniyatini berishdir. Germaniya fuqarolari butun umri davomida maktabgacha ta'lif, boshlang'ich, turli yo'naliishga qaratilgan umumiy (asosiy, kasbga yo'naltirilgan, gimnaziya maktabtablari), oliy va kasb-hunar kabi ta'lif majmuiga ega bo'ladilar. Nemis maktabgacha ta'lif muassasalari o'zbek bog'chalaridan farqli ravishda ta'lif vazirligi tomonidan nazorat qilinmaydi, shu sababli ular uchun tegishli dastur ishlab chiqilmagan. Bolalar ta'lif-tarbiysi bilan bevosita qarindoshlar shug'ullanadi yoki kichkintoylarni rivojlantiruvchi to'garaklarga yuborishadi.[3]

TILSHUNOSLIK

Maktabgacha ta'lim "Elementar bosqich" – *Elementar stufe* yoki *Frühe Bildung (Frühkindliche Bildung)* deb ataladi. Mazkur bosqich 4 oylikdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Ular 4 oylikdan 3 yoshgacha bolalarga mo'ljallangan *Kinderkrippe* – yasli bog'chaga, va 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalar uchun *Kindergarten* deb ataluvchi bog'chaga yoki *Kindertagesstätten* deb nomlangan ta'lif elementlari bo'lgan bolalar bog'chasiga boradilar. Ba'zi shtatlarda maktabga borishi shart bo'lgan, lekin rivojlanishdagi kechikishlar tufayli orqada qolib ketgan bolalar uchun *Schulkindergärten*, *Vorklassen*, *Grundschulförderklassen* va boshqa muassasalar mavjud.

Umumiy majburiy maktab ta'limi – *Die allgemeine Schulpflicht*, odatda, barcha bolalar uchun olti yoshga to'lgan yildan boshlanadi va to'qqiz yillik kunduzgi ta'lif asosida davom etadi. Bolalar bog'chasidan so'ng bolalar nemis maktablariga boradilar va "Boshlang'ich ta'lif" – Primarstufe bosqichiga o'tadilar. Shu bosqichdan Germaniyada bolalarni maktabga borishni talab qiluvchi qonun amal qila boshlaydi. Shuning uchun Germaniyada maktab ta'lifi majburiy va bepul. Ota-onalar va maktab qarshi bo'lmasa, besh yoshda bolalar birinchi sinfga boradilar. Olti yoshda barcha bolalar maktabga borishi shart. Rivojlanishda kechikishlar yoki boshqa sog'liq muammolari mavjud bo'lganda, ularga yana bir yil uyda qolishga ruxsat beriladi. Biroq bir federativ viloyat bilan boshqasi o'rtaida, xususiy va davlat maktablarida birinchi sinfga qabul qilish qoidalari farq qiladi. Boshlang'ich maktab *Grundschule* deb ataladi. Unda ta'lif to'rt yil davom etadi.[4]

Nemis ta'lif tizimidagi bu bosqich barcha bolalar birgalikda o'qiydigan yagona majburiy bosqichdir. Bu *Grundschule* boshlang'ich maktabida sodir bo'ladi. Ko'pgina shtatlarda bolalar 4-sinfda, Berlin va Brandenburgda 6 yil o'qiydilar. Boshlang'ich maktabni tugatgandan so'ng, ta'lifning keyingi bosqichiga o'tishda sinfdoshlarning yo'llari ajralib ketishi mumkin.

Boshlang'ich maktabni tugatgandan so'ng, bolalar *Hauptschule*, *Realschule*, *Gymnasium* yoki *Gesamtschule*da kabi ta'lif muassasalarida o'qishni davom ettiradilar. Bu maktab ta'lifining *Sekundarstufe I* (o'rta) va *Sekundarstufe II* (yuqori) bo'g'inalarini tashkil etadi.

Boshlang'ich ta'lifni eng sust o'zlashtirgan bolalar qo'shimcha ta'lif olish uchun *Hauptschule* (asosiy maktab)ga yuboriladi va ular besh yil davomida o'qiydilar. Uning asosiy maqsadi kasb-hunarga o'rgatish bo'lib, o'quvchilarni mehnat bozoriga kirishga tayyorlaydi. Bu yerda faqat asosiy fanlar o'rgatiladi. Yuklama haftasiga 30-33 soatni tashkil qiladi. Asosiy maktabni tugatgandan so'ng, bitiruvchi kasbiy ta'lif olishi yoki ishlay boshlashi mumkin.[5]

O'rta chadan yuqori natijalarga erishgan talabalar *Realschule* (real maktab) ga kiradi va olti yil davomida o'qiydi. Bunday maktablar ancha yuqori maqomga ega bo'lib, savdo, xizmat ko'rsatish va davlat xizmat ko'rsatish sohalarida ishlash imkonini beradi. Ushbu turdag'i maktab kengroq umumiy o'quv dasturini taqdim etadi va talabalarni olyi kasbiy ta'limga yoki mehnat bozoriga bevosita kirishga tayyorlaydi. O'qishni yakunlash natijasida olingan yuqori ball gimnaziyaga, keyin esa universitetga kirishni osonlashtiradi. *Realschule* ham boshlang'ich maktabdan keyin boshlanadi va, odatda, 5-sinfdan 10-sinfgacha davom etadi.

Maktabning eng nufuzli turi – *Gymnasium* (gimnaziya), uning diplomi ko'plab universitet fakultetlariga imtihonsiz kirish imkonini beradi. Gimnaziyalar akademik ta'lifga qaratilgan bo'lib, turli fanlar, asosan, gumanitar fanlarni o'qitishga ixtisoslashgan. O'n uchinchi sinf o'quvchilari allaqachon abituriyentlar, ular bevosita universitetda o'qishga tayyorlanadilar. Oxirgi sinfning yakunida talabalar asosiy maktab fanlaridan – *Abiturolish imtihon topshirishadilar*.

Yuqorida muassasalarining asosiy xususiyatlari *Gesamtschule* (birlashgan, umumlashgan maktab)da birlashtirilgan. Unda o'qish muddati olti yil, ya'ni beshinchi sinfdan o'ninchisi sinfgacha. Ba'zi birlashtirilgan maktablar yuqori sinflarni taklif qiladi (o'n birinchidan o'n uchinchi sinfgacha). Ularning tashkil etilishi *Gymnasium*ning yuqori sinflarini eslatadi, lekin bu yerda boshlang'ich maktabdan tavsiyanomaga ega bo'limgan bolalar ham o'qiyveradi. Bunday tashqari, hamma yerlarda ham bunday maktablar mavjud emas. Integratsiyalashgan maktabning yuqori sinflarini muvaffaqiyatli tugatgan taqdirda, o'quvchiga *Hochschulreife* (o'qish sertifikati) beriladi. Ushbu hujjat universitetga kirish uchun yetarli bo'ladi.

O'zbekistonda *Grundschule* – boshlang'ich ta'lif umumiy o'rta ta'lif maktablarining 1-4 boshg'ich sinflariga tog'ri kelib, majburiy ta'lif 7 yoshdan boshlanadi. Shundan so'ng umumiy o'rta ta'lifning yuqori sinflar bosqichiga o'tadi. O'zbekistonda ham o'quvchilar 5-sinfga o'tgach o'z ixtiyorlariga ko'ra maktabni davom ettirishlari mumkin yoki maxsus imtihon asosida o'qishlarini

Gymnasium – gimnaziyaga ko'chirishlari mumkin. Agar sinovdan o'tolmasa, umumta'lim məktəbida o'qishini davom ettiradi. Barcha o'quvchilar birday o'qishni davom etishlari mumkin. Buni nemis ta'limgiz tizimidagi *Gesamtschule* (birlashgan, umumlashgan məktəb)ga tenglashtirishimiz mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI

O'zbek va nemis ta'limgiz tizimiga oid leksik birliklari lug'ati yaratishda, oliy ta'limgiz muassasalarini filologiya fakultetlari talabalariga tarixiy roman nazariyasi bo'yicha maxsus kurs va seminarlar o'tishda, ushu fanlardan ma'ruza matnlari tayyorlashda, darslik va qo'llanmalar yaratishda qo'llanishi bilan belgilanadi. Shuningdek, yosh avlod ma'nnaviy kamolotini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

XULOSA

Germaniyada ta'limgiz tizimi federal tarzda tashkil etilgan va alohida shtatlar (Bundesländer) tomonidan boshqariladi. Har bir shtatning o'ziga xos ta'limgiz qonunlari va siyosati bor. O'zbekistonda ta'limgiz tizimi markazlashgan holda milliy hokimiyat organlari tomonidan boshqariladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'limgiz tizimi, ta'limgizni boshqarish va tashkil etishni aks ettiruvchi leksik birliklarda ma'lum farqlarni yuzaga keltiradi. Germaniya Federal Ta'limgiz va fan vazirligi – Federal hukumatning Bundesministerium für Bildung und Forschung (BMBF) deb nomlanadi. Shuningdek, federal shtatlarning ta'limgiz, yoshlar va sport uchun mas'ul bo'lgan madaniyat vazirlarining konferensiyasi mavjud bo'lib, Kultusministerkonferenz (KMK) deb ataladi. Mazkur konferensiyada har bir shtatning ta'limgiz tashkil etishga mas'ul bo'lgan vazirligiz vakili saylanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М., Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир.// Халқ сўзи. – 2017 йил, 4 август.
3. Гўзалхон Раҳмоналиевна Астонова, [Германиядаги таълим босқичлари ҳакида айrim мулоҳазалар](#), Евразийский журнал академических исследований, 2021/12, Том 1, Номер 9, Страницы 273-277
4. Гўзалхон Раҳмоналиевна Астонова, [Германия бошлангич ва урта таълимнинг ўзига хос жиҳатлари](#), Евразийский журнал академических исследований, 2021/12, Том 1, Номер 9, Страницы 95-98
5. Astonova Guzalkhon Rakmonaliyevna, [AN UNUSUAL APPROACH TO FOREIGN LANGUAGE LESSONS](#), O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA İLMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2023/3/23, Том 2, Номер 1,7 Страницы 624-628